

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTINI TASHKIL ETISH TO'G'RISIDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Samarqand davlat chet tillar institutini tashkil etish to'g'risida" 1994-yil 8-noyabrdagi **Farmoniga** muvofiq Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. 1994-yil 1-dekabrdan boshlab Samarqand davlat universitetining tegishli fakulteti negizida Samarqand davlat chet tillar instituti tashkil etilsin.

2. Quyidagilar institut faoliyatining asosiy yo'nalishlari etib belgilansin:

roman- german filologiyasi sohasida mutaxassislar tayyorlash;

chet tillar bo'yicha pedagoglar, keng ixtisosli tarjimonlar va ekskursiya olib boruvchilarni tayyorlash;

maktabgacha tarbiya pedagogikasi va psixologiyasi bo'yicha chet tillarni biladigan mutaxassislar tayyorlash va ularni qayta tayyorlash;

oliy ta'lif negizida til ixtisosliklari bo'yicha kadrlarni jadal o'qitish;

chet tillar bo'yicha mutaxassislarning malakasini oshirish;

1995/96 o'quv yilidan boshlab o'quv jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarini, shu jumladan, chet tillarni jadal o'qitish texnologiyalarini joriy qilish;

institut moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va rivojlantirish, bu maqsadlarda amaldagi qonunchilik doirasida o'z ilmiy kuchlari imkoniyatlariga muvofiq pulli xizmatlar tarmog'ini tashkil etish.

3. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi, bir oy muddatda yangi tashkil etilayotgan institut ustavini, tuzilmasini, o'quv rejalarini va til mutaxassislarini tayyorlash va qayta tayyorlash dasturlarini tasdiqlasin.

4. Samarcand viloyati hokimligi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi bilan birgalikda:

bir hafta muddatda institutni joylashtirish uchun tegishli bino ajratish masalasini hal qilsin;

institut auditoriyalari va yotoqxonalarini zarur asosli tuzatish ishlarini amalga oshirsin.

5. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi institut xarajatlariga va uni o'quv asbob-uskunalarini bilan jihozlash, anjomlar va o'qitishning texnik vositalarini xarid qilish uchun zarur mablag'lar ajratsin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Vazirlar Mahkamasining Ta'lif va fan bo'limiga yuklansin.

Vazirlar Mahkamasining Raisi I. KARIMOV

Toshkent sh.,
1994-yil 9-noyabr
542-son